

G'OLIBLARGA TAQDIM ETILDI

Keyingi paytlarda jonajon yurtimizda milliy sportimiz bo'lgan belbog'li kurash turini ommaviylikni oshirish, iste'dodli yoshlarni kashf etish yo'lidagi talaygina ishlar amalga oshirilayapti.

Tuman markazida joylashgan "Mo'jiza" istirohat bog'ida yoshlar o'rtasida tashkil etilgan tuman prokurori kubogi musobaqasi ham ko'plab iqtidor egalarini aniqlashda muhim o'rin tutdi.

Bellashuvda hududimizning «Paxtakor», «Bag'ishamol», «Olmazor», «Chamanzor», «Toshkent», «Oltinko'l», «Oqbuloq», «Do'stlik» hamda «Suvonobod» MFY sportchilari ishtirok etishdi.

Shu kuni bo'lib o'tgan musobaqa sport xlosmandlari uchun chinakam bayramga aylanib ketdi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Asrlar osha bizgacha yetib kelgan ushbu sport turiga bo'lgan qiziqishni kurash maydonini to'ldirib o'tirgan yosh-u keksha ham-yurtlarimizning quvonch shu'lalari balqib turgan yuz-u ko'zlaridan ham bilib olish mumkin bo'ldi.

Anchadan beri bunday katta musobaqa-

ga guvoh bo'lmagan ishqibozlar har bir bahsni maroq bilan tomosha qilishdi. Ayniqsa, "Paxtakor" MFY polvonlarining shijoati ularning zavqiga zavq qo'shdi. Ikki yuz nafarga yaqin kurashchi ishtirok etgan bahslar yakunida jamoa hisobida 1-o'rinni «Paxtakor», 2-o'rinni «Bag'ishamol», 3-o'rinni esa «Olmazor» MFY sportchilari egallashdi.

66, 73, 81, 90 kg. vazn toifasida erkaklar o'rtasida o'tkazilgan musobaqada Ramozon Botirov, Zuxruddin Tolipov, Samandar Botirboyev, Islom Jumayev, Sardor Davronov kabi belbog'li kurash ustalari o'z mahoratlari bilan tashkilotchilar hamda tomoshabinlarning e'tirofiga sazovor bo'ldilar.

Ayollar o'rtasida 48, 57, 70, 87 kg. vazn toifasida bo'lib o'tgan kurashda o'z iqtidorini namoyon etgan Sevinch Isroilova, Rayxona Mamatova, Nilufar Raxmonova, Sabina Abbosovalar g'alabaga erishdilar.

Tadbir yakunida g'olib va sovrindor-



larga atalgan diplom va qimmatbaho sovg'alarga tuman prokurorining yordamchilari Bobur Muratov, Usmon Mahkamov, tuman hokimining o'rinbosari Fazliddin Qo'ldashev hamda Bolalar va o'smirlar sport maktabining mutassaddilari tomonidan o'z egalariga tantanali ravishda taqdim etildi.

O'z muxbirimizdan.



SO'Z KO'RKI
MAQOL



EI KUYUNGANDA KUYUNGAN - BOTIR,
EI SUYUNGANDA SUYUNGAN - BOTIR.

12.09.2023.